



HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI SOHASIDA O'TKAZILAYOTGAN
ISLOHOTLAR – ICHKI ISHLAR ORGANLARINI XALQCHIL TUZILMAGA
AYLANTIRISH GAROVIDIR.

Shoimov Norqobil Bobomurodovich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti katta o'qituvchisi, yuridik fanlar nomzodi,
dotsent*

Annotatsiya: Maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida o'tkazilayotgan islohotlar, bu jarayonda ichki ishlar organlari, xususan profilaktika inspektorlarining roli, huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasi huquqiy asoslarining ahamiyati yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: huquqbuzarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ichki ishlar organlari, huquqiy asos, jamoat xavfsizligini, jamoat xavfsizligini ta'minlash.

Аннотация: В статье освещаются реформы, проводимые в сфере профилактики правонарушений, роль органов внутренних дел, в частности инспекторов по профилактике, в этом процессе, а также значение нормативно-правовой базы в сфере профилактики правонарушений.

Ключевие слова: преступность, профилактика преступлений, органы внутренних дел, правовое поле, общественная безопасность, обеспечение общественной безопасности.

Ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish, aholi osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan ishlarimiz bundan buyon ham izchil davom ettiriladi.

SH.M. Mirziyoyev

Jinoyatchilikka qarshi kurashish barcha davrlarda ham davlatning jiddiy va muhim masalasi hisoblanib kelingan. Inson tinch va xotirjam yashashni hohlaydi. Tinchlik bo'lgan joyda baraka va rivojlanish bo'ladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining har bir chiqishlarida sohaga mas'ul bo'lgan idoralarning asosiy vazifasi jinoyatchini topish va jazolash emas, balki jinoyat sodir etilishiga sharoit yaratib bergan holatlarni aniqlash, ayniqsa tizimli muammolar bilan ishlashga alohida urg'u qaratishni ko'p bora ta'kidlab o'tgan.

Davlatimiz rahbarining doimiy diqqat markazida turgan huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida belgilangan vazifalar ijrosi, bu borada mavjud muammolar va ularni hal etish masalalari Prezidentimiz tomonidan atroflicha muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-aprel kuni qabul qilingan «Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar



to'g'risida»gi PQ-5050-son Qaroriga¹ asosan, joylardagi ichki ishlar organlari tayanch punkti negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari tashkil etilib, tuman (shahar) hokimlari har oyda mahalla huquq-tartibot maskaniga rahbarlik qilayotgan profilaktika katta inspektori bilan shaxsan uchrashib, hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida aniqlangan muammoli masalalarni hal etish choralari ko'rilmogda, xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari har yarim yilda mahalla huquq-tartibot maskaniga rahbarlik qilayotgan profilaktika katta inspektorining hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash ahvoli bo'yicha hisobotini eshitib, zarur choralar ko'rmoqda.

Bundan tashqari, profilaktika inspektorlari tomonidan har bir oila va xonadondagi muhitni, shuningdek, huquqbuzarliklar sodir etilishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, infratuzilma va boshqa muammolarni o'rganish hamda bartaraf etish bo'yicha «Xavfsiz xonadon» va «Xavfsiz hovli» tizimi yo'lga qo'yildi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida jamoat xavfsizligini ta'minlash ushbu hududlardagi ichki ishlar va boshqa vakolatli organlarning shu jumladan, Milliy gvardiyaning mavjud kuch va vositalari yagona «poytaxt mintaqasi» tamoyili asosida safarbar qilingan holda hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Yagona «poytaxt mintaqasi» tamoyili asosida ishlarni samarali tashkil etish maqsadida Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari boshliqlarining hamraisligida Jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi. Toshkent shahar va Toshkent viloyati Milliy gvardiya boshqarmalarining boshliqlari Kengash raisining o'rinbosarlari hisoblanadi. Kengash yig'ilishlari har oyda bir marotaba o'tkazilmoqda hamda ularda poytaxt mintaqasida kriminogen va ijtimoiy vaziyatni tahlili natijasida aniqlangan muammolarni o'zaro hamkorlikda hal etish bo'yicha manzilli choralar ko'rilmogda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya va Toshkent shahar hokimligining Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi huzurida Yagona tezkor boshqaruv markazi tashkil etildi. Markazning asosiy vazifalari poytaxt hududida kriminogen va ijtimoiy vaziyatni uzluksiz monitoring qilish, jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb etilgan ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Toshkent shahar hokimligining tegishli kuch va vositalarini boshqarish, jinoyat, hodisalar va favqulodda holatlar haqidagi xabarlariga tezkorlik bilan munosabat bildirish, jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog'liq holatlar yuzaga kelganda vakolatli idoralarning harakatlarini markazlashgan holda muvofiqlashtirishdan iborat.

Yangi O'zbekistonni barpo etish davrida jamoat xavfsizligini ta'minlashni kuchaytirish bo'yicha ichki ishlar organlari sohasida tizimli ravishda tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, mazkur vazifalarni sifatli va samarali bajarilishiga erishish maqsadida, professional, yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Binobarin, ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini samarali tashkil etish, xodimlarning kasbiy,

¹ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2021-y., 07/21/5050/0280-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2023-y., 06/23/75/0292-son; 20.11.2023-y., 06/23/197/0865-son; 22.01.2025-y., 07/25/01/0059-son.



jangovar-jismoniy tayyorgarligi, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularning qabul qilinayotgan qonun hujjatlaridan xabardorlik darajasini oshirish, ular tomonidan yangi normativ-huquqiy hujjatlarni amalda qo'llash bugungi kundagi eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 15-aprel kuni «Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5076-sonli qarori¹ qabul qilindi.

Ushbu qarorga asosan, Ichki ishlar organlari uchun mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo'yicha o'sishini ta'minlash, shuningdek, kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish maqsadida, 2021-2022-o'quv yilidan boshlab, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida kadrlarni tayyorlash jarayoniga bakalavriat va magistraturani o'z ichiga oluvchi ikki bosqichli oliy ta'lim tizimi joriy etildi. Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutiga yuridik shaxs maqomi berildi va quyidagilar uning faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining barcha yo'nalishlari bo'yicha serjantlar tarkibi xodimlarini jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini tashkil etish sohasida maxsus kasbiy tayyorlash;

ichki ishlar organlarining safdor va ofitserlar tarkibidagi lavozimlariga birinchi marta tayinlangan xodimlarni boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik bo'yicha o'quv dasturlari asosida o'qitish;

ichki ishlar organlarining barcha toifadagi xodimlarini innovatsion axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda, shu jumladan turdosh yo'nalishdagi respublika oliy ta'lim muassasalari bazasida qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish.

Institutda o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, boshqa davlat boshqaruvi va huquq-tartibot organlari, davlat va nodavlat tashkilotlari, yetakchi ta'lim muassasalarining rahbar xodimlari, Vazirlik sohaviy xizmatlarining boy amaliy tajriba va yuqori malakaga ega rahbar xodimlarining o'rnatilgan tartibda jalb etilganligi, kurslarni yuqori saviyada o'tkazish imkonini bermiqda.

Mashg'ulotlar kichik guruhlarda, Institut professor-o'qituvchilari, boshqaruv idoralari rahbar xodimlari, turdosh ta'lim muassasalari xodimlari, jamoat tashkilotlari vakillari tomonidan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida olib borilmoqda. Buning uchun o'quv xonalari zamonaviy o'quv jihozlari - sensorli ekranlar va kompyuterlar bilan jihozlangan.

Tinglovchilarga amaliyotchi mutaxassis va professor-o'qituvchilarning dars taqdimotlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalari elektron shaklda tarqatilmoqda. Ular shuningdek, darsdan tashqari vaqtlarda axborot-resurs markazidan zarur adabiyotlar, tarqatma materiallar, gazeta va jurnallardan foydalanishlari uchun sharoit yaratib berilgan.

¹ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.04.2021-y., 07/21/5076/0347-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021-y., 06/21/27/1116-son, 04.04.2022-y., 07/22/190/0268-son, 15.04.2022-y., 07/22/207/0310-son; 02.08.2022-y., 07/22/339/0703-son; 21.01.2023-y., 07/23/10/0043-son; 22.08.2023-y., 07/23/282/0631-son; 22.01.2025-y., 07/25/01/0059-son; 27.01.2025-y., 07/25/17/0073-son; 20.08.2025-y., 07/25/253/0752-son.



Shuningdek, o'quv jarayoni ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bilan birga olib borilmoqda, tinglovchilarga milliy qadriyatlarimizni tanishtirish maqsadida Toshkent shahridagi Temuriylar, O'zbekiston tarixi, O'zbekiston san'ati, Qurolli kuchlar muzeylariga, Zangiota, Shahidlar maydonidagi qatag'on qurbonlari ziyoratgohlariga, konsert va teatrlarga borish tashkil etilmoqda.

E'tiborli jihati shundaki, ta'lim muassasasining Axborot-resurs markazi «Elektron kutubxonasi»ning kompyuterlari internet tarmog'iga ulanib, «Library.ziyonet.uz», «Norma.uz», «Lex.uz», «Natlib.uz» hamda boshqa rasmiy saytlardan foydalanish yo'lga qo'yildi. Axborot-resurs markazi o'quv adabiyotlari bilan muntazam ravishda boyitib borilmoqda. Institutda «Vatanparvarlik burchagi» joriy etilgan. Shuningdek, Institut jamoasi oldiga qo'yilgan vazifalarni to'la-to'kis amalga oshirish maqsadida bir qator ustuvor yo'nalishlar asosida yo'l xaritasi belgilab olingan.

Hozirda, Institutning Toshkent shahar Bektemir tumanida joylashgan asosiy o'quv bazasida ichki ishlar organlari xizmatiga yangi qabul qilingan safdorlar tarkibidagi xodimlar bilan boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik kurslari o'tkazilmoqda. Tinglovchilar patrul-post xizmati, jazoni ijro etish xizmati, tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbarlik otryadi, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmati, yo'l harakati xavfsizligi xizmati va boshqa yo'nalishlar bo'yicha tahsil olmoqda.

O'quv jarayoni blok-modul tizimiga asoslangan bo'lib, mashg'ulotlarda innovatsion pedagogik texnologiya, interfaol metod va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali tinglovchilarning huquqiy va amaliy ko'nikmalari hamda kasbiy bilimlari oshirilmoqda. O'quv mashg'ulotlari tinglovchilarning kasbiy, huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, jangovar, jismoniy, ruhiy, tibbiy tayyorgarligini ta'minlashga qaratilmoqda.

Ayniqsa, jamoat tartibini saqlashga doir asosiy bilim va ko'nikmalar berib borilmoqda.

Zero, bugungi yangilanayotgan O'zbekistonning rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishida, uning xalqaro maydondagi obro'si va nufuzini oshirishda, mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlashda, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashda ichki ishlar organlarining har bir xodimi mas'uldir.

Bu borada, Institutimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'ruzalari, ichki ishlar organlari tizimini isloh qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida sud va huquq-tartibot organlari, shuningdek, respublikamizning ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid muhim masalalar yuzasidan o'tkazilayotgan videoselektor yig'ilishlarining mazmun-mohiyati va undan kelib chiqadigan vazifalar, shu asosda vazirlik tomonidan qabul qilingan idoraviy-huquqiy hujjatlarning talablari professor-o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladigan mashg'ulotlar davomida xodimlar va tinglovchilar e'tiboriga muntazam ravishda yetkazib borilmoqda.

Ta'lim muassasasida davlat ta'lim talablari, malaka talablari, o'quv dasturlarini amaliyotga tadbiq etuvchi, ta'lim-tarbiya va ilmiy-tadqiqot ishlarining asosiy subyektlaridan biri ilmiy-pedagog xodimlar ekanligini nazarda tutgan holda, bugungi kunda Institutni malakali kadrlar bilan ta'minlash borasida, birinchi navbatda, ilmiy daraja va ilmiy unvonlari bo'lgan, huquqni muhofaza qilish organlarida ko'p yillik amaliy stajga ega, ichki ishlar



organlari faoliyatiga oid chuqur kasbiy bilimlarga, intellektual qobiliyat va yuksak axloqiy fazilatlariga ega xodimlar bilan jamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, Kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoniga o'qitishning zamonaviy ilg'or tajribalarini tadbqiq etish bo'yicha hamkorlik ishlarining dolzarb ahamiyatga ega ekanligini inobatga olgan holda, respublikamizdagi qator turdosh oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik to'g'risidagi memorandumlar imzolangan.

Memorandumga ko'ra, endilikda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqishda, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbqiq etish, innovatsion va texnologik g'oyalarni rivojlantirish, shuningdek, ilmiy salohiyatni oshirish, ilmiy loyihalarni hamkorlikda bajarish bo'yicha yaqindan hamkorlik qilish belgilandi.

Binobarin, hozirgi kunda tezlik bilan rivojlanib borayotgan barcha sohalarda, shu jumladan, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan o'zaro samarali hamkorlik talab etilmoqda.

Professional ta'lim tizimi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish maqsadida tashkil etilgan ushbu ta'lim muassasasi bilan o'rnatilayotgan hamkorlik yo'nalishlari keng qirralidir.

O'zaro hamkorlik memorandumiga asosan, o'qitishning zamonaviy innovatsion shakl va usullari, o'quv jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha o'zaro tajriba almashish, o'quv jarayoniga malakali mutaxassislarni jalb qilish, normativ-huquqiy, metodik va tahliliy xususiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni almashish, professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish, o'quv, ilmiy va boshqa adabiyotlarni almashish kabilar amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida IIV Xalqaro hamkorlik boshqarmasi bilan birgalikda hozirgi kunda jamoat tartibini saqlash sohasida ilg'or tajribaga ega bo'lgan BMT rivojlanish dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi, YEXHTning O'zbekistondagi loyihalar muvofiqlashtiruvchisi, Yaponiyaning JICA, Janubiy Koreyaning KOICA, Turkiyaning TIKA kabi xalqaro hamkorlik va muvofiqlashtirish agentliklarining vakolatxonalari hamda Rossiya, Xitoy, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Germaniya kabi davlatlarning O'zbekistondagi elchixonalari (konsulliklari) bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, respublikamizda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash sohasida olib borilayotgan islohotlarning tub maqsadi - birinchidan, jamiyatda fuqarolarning tinch-totuv yashashini ta'minlash, ularning konstitutsiyaviy huquqlarini turli xil tajovuzlardan himoya qilish bo'lsa, ikkinchidan, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga jalb etilgan xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishdan iboratdir.